

ZAMONAVIY TA'LIMDA MEDIA PLATFORMALARDAN FOYDALANISH (ERTAK JANRI MISOLIDA)

Qurbaniyazova Zulqumar Sali qizi,
Ajiniyoz nomidagi NDPI,
o'zbek adabiyoti kafedrasida stajor-o'qituvchisi.
zulxumarqurbaniyazova6@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18230878>

Annotatsiya: Mustaqillik davridan keyin yurtimizda yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bois ham qardosh va qardosh bo'lmagan xalqlar folklor namunalari o'qitishda yangi metodlardan foydalanish talab qilinadi. Zamonaviy ta'limda foydalaniladigan texnologiyalarning o'rni va roli yosh avlodning rivojlanishida bir qator ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ertak janri o'qitishda media platformalardan foydalanishning bir qator afzalliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: adabiy ta'lim, metodika, ertak janri, media platformalar, youtube, mobil ilova, folklor, video, audio.

Аннотация: После обретения независимости в нашей стране проводятся новые реформы. Поэтому при обучении образцам фольклора братских и неродственных народов требуется использование новых методов. Место и роль технологий, используемых в современном образовании, имеют ряд значений в развитии подрастающего поколения. В данной статье анализируется ряд преимуществ использования медиаплатформ в обучении жанру сказки.

Ключевые слова: литературное образование, методика, жанр сказки, медиа-платформы, youtube, мобильное приложение, фольклор, видео, аудио.

Abstract: After gaining independence, new reforms are being implemented in our country. Therefore, it is necessary to use new methods in teaching folklore samples of fraternal and unrelated peoples. The place and role of technologies used in modern education are of great importance in the development of the younger generation. This article analyzes a number of advantages of using media platforms in teaching the fairy tale genre.

Keywords: literary education, methodology, fairy tale genre, media platforms, youtube, mobile application, folklore, video, audio.

Kirish. Yurtimizda istiqloq davridan keyin, juda katta, misli ko'rilmagan xalq orzularining ro'yobidek yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bois ham globallashuv davrida qardosh va qardosh bo'lmagan xalqlarning folklor namunalari yangicha nazar bilan mutolaa qilishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Negaki epik matn va asarlarning qa'rida insoniyatning o'tmishi, ishonsh va e'tiqodi, rivojlanish bosqichlari, tafakkuri, turmush tarzi, ularning paydo bo'lishi va genezisi, shuningdek, urug', qavm, millat va xalqlarning shakllanishi, tarixi bilan aloqador salmoqli ma'lumotlar yashiringan. Bugungi ilmiy izlanishlar va estetik tafakkur ertak janriga ham yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Chunki ertaklar matnida (turli xalqlarning ertaklarida) eposni yaratuvchi millatning turli davr va zamonlardagi hayoti, orzu-istaklari, turmush tarzi turli xil usullarda o'z ifodasini topgan.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Xalq ertaklaridagi sujet va motivlar, ularning shakllanish jarayonlari va o'rgatish jarayonidagi o'zgachaliklar folklorshunoslik va metodistlarning tadqiqot markazida turadi.

Jahon xalqlarining ertaklarini turlarga ajratib tasniflagan olim A.Arne[1]ning tadqiqotlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Turkiy xalqlarda B.Karimov, K.Imamov, M.Afzalov, T.Mirzaev, M.Juraev, G.Jalalov, S.A.Qasqabasov, B.Veliev, M.Sakali, J.Yusupov, S.Jumaeva, J.Eshonqulov, Q.Beknazarov, M.Sadiqova, K.Qadirov, N.Dustxujaeva, T.Raxmanov, O.Qayumov, A.Tilauov, Z.Rasulova, Z.Nazarova kabilarning tadqiqotlari muhim manba bo'ladi. „Qoraqalpoq xalq ertaklari“ ning turli yillardagi nashrlari (1940, 1949, 1956, 1995), „Qoraqalpoq folklori“ ko'p jildligining 67-76-tomlaridagi [4] (2014) ertaklari va ingliz ertaklari to'plami, internet manbalari asos sifatida xizmat qiladi.

Maktabgacha va maktab ta'limi, oliy ta'lim tizimi (folklor yo'nalishi)ni rivojlantirishda yordam beradigan mobil ilova yaratish. Mobil ilova yaratishning ta'lim tizimini rivojlantirishdagi ahamiyatini quyidagi bosqichlarda ko'rib chiqishimiz mumkin.

Loyihaning asosiy maqsadi – milliy va xorijiy og'zaki ijod namunalarini saqlash, ularga qulay raqamli kirish imkonini yaratish hamda yosh avlodda o'z madaniyatiga va boshqa xalqlarning og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishni oshirishdan iborat.

Muhokama va natijalar. Mobil ilovaning vazifalarini quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

1. O'zbek, qoraqalpoq va ingliz xalq ertaklarini ishonchli manbalarga asoslanib to'plash va mobil ilovada ularni alohida qismlarga ajratgan holda topish imkoniyatining yaratilishi:

O'zbek, [2] qoraqalpoq va ingliz [3] xalq ertaklarini ishonchli manbalar asosida yig'ish, ularni tahlil qilish va toifalarga ajratish orqali yagona elektron platformaga joylashtirish rejalashtirilgan. Mobil ilova shaklida taqdim etiladigan ushbu platforma foydalanuvchilarga ertaklarni xalqiga, mavzusiga yoki bolalar yoshiga qarab alohida bo'limlarda topish imkonini beradi.

2. Mobil ilovadan foydalanuvchilar o'zlarining yoshidan kelib chiqqan holda ilovadagi ma'lumotlardan foydalana olishi:

Ilova foydalanuvchilarning yoshi, qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda moslashtirilgan kontentni taqdim etadi. Dastlabki ro'yxatdan o'tish jarayonida foydalanuvchidan yoshi yoki yosh toifasi (masalan, 3–6 yosh, 7–10 yosh, 11–14 yosh va h.k.) so'raladi. Shunga qarab, ilova quyidagi ma'lumotlarni foydalanuvchiga taqdim etadi:

2.1. Har bir yosh toifasi uchun til darajasi, matn uzunligi va mazmun jihatidan moslashtirilgan ertaklar tanlanadi.

2.2. Kichik yoshdagi bolalar uchun mahoratli diktorlar tomonidan o‘qilgan ertaklar ovoqli shaklda taqdim etiladi.

2.3. 3–6 yoshli foydalanuvchilar uchun ertaklar rasmlar va animatsiyalar bilan birga ko‘rsatiladi.

2.4. Katta yoshdagi bolalar uchun ertak mazmuniga oid testlar, savol-javoblar, topshiriqlar orqali interaktiv o‘rganish imkoniyati taqdim etiladi.

2.5. Ilovada ota-onalar uchun maxsus bo‘lim mavjud bo‘lib, ular farzandi o‘qiyotgan ertaklarini kuzatib borishi va yoshga moslik darajasini nazorat qilib, belgilab berishi mumkin.

3. O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz xalq ertaklaridan bir xil sujet, motiv asosiga qurilganlarini topish imkoniyatining berilishi:

Ilovaning muhim innovatsion jihatlaridan biri — o‘zbek, qoraqalpoq va ingliz xalq ertaklari orasida umumiy sujetlar va o‘xshash motivlarni aniqlash imkoniyatining mavjudligidir. Bu funksiyaning asosiy vazifasi — har xil xalqlarga oid ertaklar orasidagi umumiylik va farqlilikni ta’limiy hamda tadqiqot maqsadida taqdim etishdir.

Ushbu modul quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

3.1 Foydalanuvchi bitta ertakni ochganda, unga mazmunan o‘xshash boshqa xalqlarning ertaklari avtomatik ravishda tavsiya qilinadi (masalan, “Zolushka”ga o‘xshash o‘zbek va qoraqalpoq ertaklari paydo bo‘ladi).

3.2 Jasorat, mehr-oqibat, donolik, sadoqat, hiyla-nayrang kabi umumiy motivlarga asoslangan ertaklar alohida bo‘limda ko‘rsatiladi.

3.3 Bir sujet asosidagi 2–3 xil xalq ertagini yonma-yon ko‘rib, matn yoki audio formatda qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

4. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘qitishda qo‘llaniladigan eng samarali usullar jamlanmasi:

Loyiha doirasida mobil ilovada taqdim etiladigan xalq ertaklari nafaqat o‘qish uchun, balki o‘qitish va tarbiyaviy ishlar uchun ham samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, ilova foydalanuvchilari — o‘qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar uchun xalq og‘zaki ijodini o‘rgatishda eng samarali usullar jamlanmasi taqdim etiladi:

4.1 Ertak matni tugallangandan so‘ng unga doir savollar orqali bolaning tushunishi, xulosa chiqarishi va mustaqil fikrlashi faollashtiriladi.

4.2 Ertakdagi qahramonlarni rollar asosida jonlantirish orqali bolalarda nutq rivoji, dramatik ifoda va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari shakllanadi.

4.3 Ilovadagi ertakka oid rasmlar asosida bolaning o‘zi ertak tuzishi orqali tasavvur va nutqiy kompetensiyasi yanada rivojlanadi.

4.4 Bu usul bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish bilan birgalikda o‘z fikrini bildirishga o‘rgatadi. Ilova bu uchun maxsus „**Ertakni davomini yarating**“ bo‘limini taklif qiladi.

4.5 Turli xalqlarning bir xil motivga ega ertaklarini taqqoslab o'rganish orqali bolalarda madaniyatlararo tafakkur va qiyosiy tahlil qilish malakasi shakllanadi.

4.6 Ovozli, video va animatsion shakllardagi ertaklardan foydalanish bolalarning e'tiborini jalb qiladi va ertaklarning g'oyalarini oson o'rganishiga yordam beradi.

Ilovada bu usullarning har biri bo'yicha metodik tavsiyalar, namunaviy mashg'ulotlar va o'qituvchilar uchun maxsus metodik qo'llanma (pdf yoki video shaklida) bo'lishi maqsadga muvofiq.

5. Ota-onalarga yordamlashuvchi qism:

5.1 Bolaning o'qigan ertaklari, tinglagan audio materiallari va ishtirok etgan testlari haqida ma'lumotlarni kuzatib borish imkoniyati.

5.2 Farzandining yoshi va qiziqishlariga qarab ota-onalarga turli ertaklar tavsiya qilinadi.

5.3 Har bir ertakdan keyin ota-onalar uchun tayyorlangan qisqa tarbiyaviy sharh: „Ushbu ertak bolaning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?“, „Savol-javobda qanday muhokama qilish mumkin?“

5.4 Ota-onalar farzandi bilan uy sharoitida ertakka bog'liq kichik sahnalashtirishlar, rasm chizish, hikoya davom ettirish kabi interaktiv faoliyatlar uchun g'oyalar oladi.

Ilovaning bu funksiyasidan foydalanishning afzalligi quyidagicha:

1. Ilovaning alohida „Ota-ona paneli“ bo'lib, u ro'yxatdan o'tgan har bir foydalanuvchi uchun shaxsiylashtirilgan bo'ladi.

2. Eslatuvchi-farzandiga ertak aytib berishi kerakligini aytib turadi. Xuddi „**budilnik**“ kabi eslatadi.

3. Qisqa videodarslar va pdf tarzidagi „Ertakni bolaga qanday o'qib berish kerak?“ kabi maxsus qo'llanmalar taqdim etiladi.

4. Maxsus „Eslatma“ funksiyasi orqali ota-onaga har kuni 1 daqiqalik tarbiyaviy maslahat yuboriladi (masalan, „Bugun bolangiz bilan ertakdagi bosh qahramonni muhokama qiling“).

6. Foydalanuvchilar mustaqil bajaradigan topshiriqlar:

Ertak mazmuni bo'yicha tushunishni tekshiruvchi muhokamali va ochiq savollar (Masalan: „Ertakdagi qahramon to'g'ri ish qildimi?“, „Agar siz u qahramonning o'rnida bo'lganingizda nima qilar edingiz?“).

„Ertakni davom ettiring“ – Boladan ertakning keyingi qismini o'zi o'ylab topib yozishi yoki og'zaki shaklda aytib berishi so'raladi.

„Yangi yakun o'ylab toping“ – Ertakka muqobil yakun topish orqali bolaning tafakkurini rivojlantiradi.

„O'zingiz ertak to'qib ko'ring“ – Berilgan rasm, voqea yoki so'zlar asosida yangi ertak yaratish.

„Ertakdagi sevimli qahramoningizni chizib bering“.

Qahramonlar orasidagi munosabatlar xaritasini tuzish.

Ertakdagi muammo va uning yechimini tahlil qilish.

„To‘g‘ri / noto‘g‘ri harakatlar“ni ajratib ko‘rsatish.

Audio orqali ertakdagi voqeani ajrata olish.

„Qaysi rasmda ertakdagi voqea tasvirlangan?“

Har bir ertak oxirida yoshga mos 3–5 ta topshiriq tavsiya qilinadi.

O‘qituvchilar yoki ota-onalar uchun alohida tavsiya: „Bu topshiriq qanday maqsadga xizmat qiladi?“

Xulosa. Bu loyiha orqali xalq ertaklari zamonaviy vositalar orqali jonlantiriladi va global miqyosda tanitiladi. Yosh avlod nafaqat o‘z madaniyatiga, balki boshqa xalqlarning og‘zaki ijodiga ham hurmat bilan qarashni o‘rganadi. Shuningdek, bu platforma o‘qituvchilar va ota-onalar uchun ham qulay ta’limiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiya vositalari faqat ijtimoiy tarmoqlarda emas, balki ta’lim sohasining rivojlantirilishda ham foydalanilishi kerak! Loyihada o‘zbek va qoraqalpoq xalq ertaklari bilan bir qatorda ingliz xalq ertaklari ham tahlil qilinib, ularning mavzu, obrazlar va axloqiy g‘oyalari jihatidan umumiy va farqli tomonlari ochib beriladi. Ushbu ertaklarning o‘qituvchilarga mos dars jarayonida qo‘llanilishi uchun interaktiv yondashuvlar ishlab chiqiladi. Ilova va dars materiallari orqali o‘quvchilar ertaklarni tinglab, o‘qib, solishtirib va muhokama qilib, nafaqat tilni o‘rganadilar, balki milliy va xalqaro madaniyatlar bilan tanishadilar. Bu esa ularning fikrlash doirasini kengaytiradi va estetik didni shakllantiradi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, xalq ertaklarini integratsiyalash orqali ta’lim jarayonini yanada boyitish, madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish va o‘quvchilarda til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish mumkin. Loyihaning tavsiyalari amaliyotda qo‘llanilsa, u maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim bosqichlarida samarali ta’lim vositasiga aylanishi mumkin. Shuningdek, ushbu nazariyaning amaliyotga joriy qilinishi bilan bog‘liq quyidagi maketni ko‘rib chiqishimiz mumkin. Ya’ni platformaning tuzilishi qanday bo‘lishini o‘z imkoniyatimizdan kelib chiqqan holda ishlab chiqdik.



XALQ ERTAKLARINI O'QITISIDA PISA TOPSHIHKLARI

Bolalarni ertaklarini tasavvur qilish qiyin. Darhaqiqat, sizga ham o'yingiz yoki buyuribingiz "Bo'ysinq" ertagini aytib bergandir. Bu ertakni eshitganingizda bog'iroqqa juda achinganman. Ehtimol, siz ham achingandiriz. Aytishingiz, nega ertakning oxiri bunday yakun topdi?

"Oltin baliq" ertagi ham juda qiziqarli. Albatta, uni eshitganingiz. Afus, ertakning oxirida cholingiz uyga yana eski bo'lib qoladi.

Siz baliq oviga borangiz, shuni? Agar oltin baliq tutib olsangiz, undan nima so'ragan bolalar edingiz?

"Hunar haqida ertak" bilan tanishib chiqqan bo'lsangiz, qiz podshohga aytgan sharti haqida qanday fikrdasiz? Agar siz podshoh bo'lib qolsangiz, qiz aytgan shartni bajarishga harakat qilasizmi?

Topshiriq bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- berilgan savollarga imlo qoidalarida hisobga olinmagan holda javob beradi;
- tinish belgilarni to'g'ri qo'llay oladi;
- yuqoridagi savollar asosida o'zlarining mustaqil fikrlarini bildiradi.

TOPSHIHKALAR:

OZBEK XALQ ERTAKI YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIHKALAR:

1. Yuqoridagi ertak matniga mos keluvchi javobni belgilang. (5 ball)

A) Podshohlik hunar emasligini tushinib yetishimiz kerak.

B) Bilim va hunar egallash orqali o'zimizga va boshqalarga foyda keltirishimiz mumkin.

C) Hunar orqali o'z joningizni saqlab qolishingiz mumkin.

D) Podshoh bo'lish uchun hunar egallash darok.

Faoliyat: Urumlashtirish va talqin qilish.

Matn formati: Tutash
Vaziyat: ijtimoiy



XALQ ERTAKLARINI SAHNASLASHTIRIB OYATISH

O'quvchilar o'z podshohligidan kelib chiqqan holda bolalarga uyga vaqifi uchun "Loyiha ishi" ko'rsatishda uch xalq ertagini bo'lib berish mumkin. Bu ko'rsatishni bajarish, ya'ni loyihani tashkil etishning mazmunini quyidagicha tashkil etish kerak:

1. Sahna ko'rsatish tayyorlagi. ("Oltin baliq", "Zunrad va Qimmat", "Qiz podshoh") ertaklari asosida tayyorlanishi kerak. O'quvchilar o'zlarini sahnalashtiradigan ertakning mazmunini bilan to'g'ri tanishishlari kerak. Shuningdek, har bir ertakning o'ziga xos imkoniyatlarini ham sahnalashtirish kerak. Chunki, asl matnda ko'rsatilgan mazmunni tarjima orqali tushuntirishning murakkabligini hisobga olishimiz kerak.

2. Sinf o'quvchilari 3 ta guruhga bo'linadi. (Bundagi o'quvchilarning soniga qarab guruhlar sonini ham ko'rib olinishi mumkin. O'quvchilarni jamoalariga ajratishda ro'yxat usulidan foydalanilgan holda maqul. Bu o'rganuvchilar o'rtasida hisoblash uchun kelib chiqqan holda o'qitishning oltin baliq guruhlariga taqsimlash jarayonida ularning bilim va qobiliyatlarini hisobga olingan holda bo'linishi ta'minlanishi zarur.)

3. Qiziq tashlash yo'ri bilan ertaklar taqsimlanadi. (Guruhlarga ajratilgan o'quvchilar tayyorlangan sahna ko'rsatish uchun erak tanlaydi. Ertaklarni taqsimlash jarayon ham o'ziga xos usulda tashkil qilinishi ta'minlash uchun bu yo'ri bilan foydalanilishi kerak.)




MAKTABA OZBEK DASTURIDA 1-3-KLASS VA 4-KLASSDA IMONGA OQSHIRILAR OQUVCHILAR UCHUN TOPSHIHKALAR QOYILGAN BOLDI.

1. Sahna ko'rsatish. Bunda o'quvchilar o'zlarini sahnalashtirish uchun berilgan ertak matni asosida ish ko'rishlari mumkin. Ko'rsatishning tarkibi yamoli talqin qilish, yamoli an'anaviy ertak matniga qaratilgan tarzda muvazir yoki harakatlar o'qitilishi mumkin. Bu ularning o'z podshohligidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

2. Audio yoki film haqida ertak matniga mos fan jamoasida o'quvchilarning o'zlarini tanishtirish, audio versiyasini yaratish kerak, agar bunday ish bo'lmasa, sahnalashtirilgan paytda bu sahni amalga oshirishlari ham mumkin.

3. Libretto tayyorlash (libretto so'zida shakilda, daradan tashqari mashg'ulotlar ko'rsatish uchun o'quvchilarning o'zlarini tanishtirish uchun berilgan yoki ko'rsatish uchun o'zlariga mos o'qitish materialini tayyorlash kerak).

4. Sahna ko'rsatish (vaqtga ajratib o'tib borish, shu bilan sahna ko'rsatish 10 daqiqadan oshmasligi va guruhda 5-6 nafar o'quvchi ishtirok etishi yoki katta sahnada).





VIDEO VARIANTLARI

OZBEK, QORAQALPOQ VA INGLIZ XALQ ERTAKLARINI O'QITISHDA INTERAKTIV






MUSTAQIL DASTURLADIGAN TOPSHIHKALAR



Bu ertakda dangasalik va ishyoqmaslik qoralanadi. Mehnat qilgan inson oxirida baxtli hayot kechirishi haqida fikrlar ilgari suriladi.




MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARI UCHUN USULLAR




Uch xalq bir olam

Loyiha muallifi: Z.Qarbaniyazova
Texnik muharrir: E.Qasimov



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aarne A.Verzeichnis der Märchentypen. – Helsinki: Suomalaisen Tiadeakatemia Toimituksia, 1910.
2. Avvalboyeva I. O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: .Yurist-media markazi, 2017.
3. Ingliz xalq ertaklari. Tarjimon: R.Otaboyeva. –T.: „Sharq“, 2014.
4. Қарақалпақ фольклоры. Коп томлық 67-76-томлар. Ноқис “Илим” 2014.